

Date: 11th February-2026

MUSTAQILLIK YILLARIDA RESPUBLIKAMIZDAGI IQTISODIY TARAQQIYOT NAVOIY VILOYATI MISOLIDA

Zafar Karimovich Sobirov

O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi 2-sonli Toshkent akademik litsey
oliy toifali tarix o'qituvchisi va Ijtimoiy-Siyosiy fanlar instituti II-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi va Navoiy viloyatida mustaqillik yillarida ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar chuqur tahlil qilinadi. Ushbu maqola orqali O'zbekiston Respublikasidagi iqtisodiy yuksalish Navoiy viloyati misolida yoritib berishga va bu uchun keng imkoniyatlar yaratilganligiga guvoh bo'lamiz.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, Bozor infratuzilmasi, Navoiy erkin industrial-iqtisodiy zona, "Islohotlar – islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning manfaatlarini uchun"

Аннотация. В данной статье проводится глубокий анализ социально-экономических преобразований в Республике Узбекистан и Навоийской области за годы независимости. В статье на примере Навоийской области освещается экономический рост Республики Узбекистан, а также отмечается создание широких возможностей для его обеспечения.

Ключевые слова: Центральная Азия, рыночная инфраструктура, свободная индустриально-экономическая зона «Навои», «Реформы — не ради реформ, а прежде всего ради человека и его интересов».

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the socio-economic changes in the Republic of Uzbekistan and Navoi region during the years of independence. Through the example of Navoi region, the article highlights the economic growth of the Republic of Uzbekistan and demonstrates that broad opportunities have been created to ensure this development.

Keywords: Central Asia, market infrastructure, Navoi Free Industrial and Economic Zone, "Reforms are not for the sake of reforms, but прежде всего for the individual and his interests."

XXI asr bo'sag'asida dunyo ijtimoiy-siyosiy jarayonlari tubdan o'zgardi, inson va tabiat, odam va olam taqdiriga daxldorlik hissi tobora kuchaydi. Geografik - siyosiy o'rin jihatdan O'zbekiston Markaziy Osiyoning qoq o'rtasida joylashganligi ayni ana shu mintaqada barqarorlikni ta'minlash, o'zaro hamkorlik va birodarlikni chuqurlashtirish uchun tayanch nuqta bo'lib xizmat qildi.

"Mustaqillikni qo'lga kiritgan har bir mamlakat o'z taraqqiyot yo'lini izlagan, yangi jamiyat barpo etish borasida o'z andozasini ishlab chiqqan".¹ O'zbekiston o'zining iqtisodiy islohotlarini ma'naviy islohotlar bilan birgalikda olib borayotganligini bugungi kunda jahon mamlakatlari ham etirof etmoqda. Mustaqil taraqqiyotda iqtisodiy islohotlar ko'lamini unig birinchi davriga qaraganda ijobiy siljishlar ko'p bo'lganini ko'rsatadi.

¹ Karimov I. A. O'zbekiston buyuk kelajak sari T. O'zbekiston 1998-yil 83 bet



Date: 11th February-2026



Bozor infratuzilmasi iqtisodiyotimizning butun strukturasi tayanadigan poydevoridir. O'zbekistonning milliy mustaqilligini qo'lga kiritishi, suveren davlat sifatida rivojlanish yo'lga o'tib, mustaqil qadam tashlashi, uning uzoq yillar davomida tashqi dunyodan ajralib kelganligiga barham berdi va mustaqil tashqi siyosat yuritib, jahon hamjamiyatiga qo'shilishi uchun keng imkoniyat va shart-sharoitlar yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi xaritasidan yangi hududiy birilik sifatida o'rin egallagan Navoiy viloyati Oliy Kengashi Rayosatining 1992 yil 27 yanvardagi qaroriga ko'ra qayta tashkil qilindi. Navoiy viloyatining mustaqil davlatimiz istiqloli sahifasidagi dadil odimlari boshlandi.

Mamlakatimizda musaqillk arafasidagi iqtisodiy islohotlardagi ishlarda amalga oshirilgan va oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy tamoyillaridan biri sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan chuqur asoslab berilgan kuchli ijtimoiy iqtisodiy siyosat aholi yalpi daromadlarining o'sishi uchun zarur shart-sharoit yaratdi. Mazkur islohotlar natijasida 1991-2021 yillar davomida O'zbekiston aholisining yalpi daromadlari 8,6 barobar oshdi.

"Mustaqillikni erkinlik to'g'risidagi shiorlar bilan emas, balki siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy mazmun bilan to'ldirish kerak."¹ Bunda albatta iqtisodiy dasturdan har qanday mafkuraviy aqidalarni holi etish lozim.

O'zbekiston mustaqilligining ilk kunlaridan boshlab o'z umrini o'tab bo'lgan eski buyruqbozlik asosida tuzilgan mustabid sovet tizimidan voz kechib, mamlakatimizda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlatni barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishga asosiy vazifalardan biri edi.

Mamlakatimiz hukumati tomonidan aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning qabul qilinishi, hayotimizda tobora hal qiluvchi kuchga aylanib borayotgan o'rta sinfni shakllantirish imkonini berdi. ma'lumotlarga ko'ra, 1990 yilda o'rtacha daromadga ega bo'lganlar aholining 18 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2000 yilda uy xo'jaliklarini tadqiq etish natijalariga ko'ra bu ko'rsatkich 24 foizga yetgani ayon bo'ldi. 2021 yilda esa 62 foiz uy xo'jaliklari o'rtacha darajadan kam bo'lmagan barqaror daromadga ega bo'lgan.

1991 yilda aholi daromadlarining bor-yo'g'i 46-48 foizi mamlakatimizda ishlab chiqarilgan tovar resurslari bilan ta'minlangan bo'lsa, 2011 yilda bu ko'rsatkich 75 foizdan oshdi. Shu bilan birga, 2011 yilda iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 1991 yilga nisbatan 6,7 barobar, aholiga pullik xizmat ko'rsatish hajmi esa 1,4 barobar o'sdi.

Va shu bilan birga Xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy hamkorlikni yo'lga qo'yish, unda tashqi iqtisodiy faoliyatni liballashtirish choralari bilan birgalikda, ichki bozorni, xususan mamlakat ishlab chiqaruvchilarini noteng raqobatdan himolash choralari ham ko'rildi. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirishga, yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarishni o'zlashtirishga investitsiya kiritayotgan, mahsulot eksport qiluvchi korxonalar uchun soliq va bojxona imtiyozlari joriy qilindi, imtiyozli shartlarda kreditlash tartibi kiritildi.

¹ Karimov I, A "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". T.: "O'zbekiston", 2011 yil, 355-bet.

Date: 11th February-2026



Mustaqillikkacha bo'lgan davrda ham Navoiy viloyatida ishlab chiqarish respublikamizda yetakchilik qilib turgan. Jumladan "2006 yilda viloyatdagi korxonalari tomonidan 4,2 mln. AQSH dollari miqdorda eksportga mahsulot chiqarilgan. Bu ko'rsatkich 2005 yilning mos davriga solishtirganda 3,6 barobarga ko'paygan." ¹

"Viloyatda ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmi 2009 yil to'qqiz oyi davomida 2008 yilning shu davriga nisbatan 107,8 foizni tashkil etdi. Shuningdek, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 106,9 foizni, qurilish ishlari hajmi 116,6 foizni, chakana savdo aylanmasi 118,4 foizni, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish hajmi 106,8 foizni, pullik xizmatlar hajmi 118,7 foizni tashkil etgan. Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot hajmi 2144,7 ming so'mdan to'g'ri kelib, 2008 yilga nisbatan 6 foizga o'sgan" ²

Navoiy viloyati, nafaqat respublikamizda, balki, jahondagi ko'plab mamlakatlardagi kabi iqtisodiyotining keng tanilganligi, bugungi kunda ham samarali faoliyat ko'rsatib kelayotganini mana shunday qudratli va ko'p tarmoqli zamonaviy ishlab chiqarish kompleksiga ega ekanligi bilan ham izohlash mumkin.

Iqtisodiy inqiroz haqida ham to'xtalib o'tadigan bo'lsak O'zbekistonni unga qarshi to'g'ri va samarali kurash olib borganligi iqtisodiyotni ma'lum bir % hisobi bilan bo'lsa ham jadal o'sishga erishdi va global moliyaviy inqirozga qarshi samarali choralar ko'rdi. Keyingi besh yilda O'zbekistonda o'sish suratlari o'rtacha 8,5 foizni tashkil etdi va bu Markaziy Osiyodagi o'rtacha o'sish ko'rsatkichidan yuqoridir. Qator yillar davomida kuzatilgan byudjet profitsiti, rasmiy zaxiralar darajasining yuqoriligi, davlat qarzining kamligi, barqaror bank tizimi va xalqaro moliya bozorlaridan qarz olishga ehtiyotkorlik bilan yondashish mamlakatni global inqirozning bevosita oqibatlaridan himoya qildi. Ushbu holatlarni o'z vaqtida oldini olishdagi asosiy vazifalardan yana biri kelajakdagi iqtisodiyotni istiqbolli rejalarini ishlab chiqilganligidan ham izoh topish mumkin.

Mustaqillikdan so'ng industrial rivojlangan mamlakatlarga nisbatan past darajada rivojlanishiga qaramay, mamlakatimizda keyingi o'n yillikda iqtisodiy sohada ham iqtisodiyotni mustaqil rivoj toptirib borish asosiy masalalardan biriga aylanmoqda. Bu holat qo'yidagi sabablarga ko'ra yuzaga keldi: davlat moliyalashtirilishining kamayishi, ya'ni mulk shaklini o'zgartirish jarayonlarining ta'siri va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish natijasida axoliga va tashkilotlarga pullik xizmatlar ko'rsatish oshib bordi; ko'plab yangi xizmat turlari paydo bo'ldi; xizmat ko'rsatish korxonalari orasida raqobat kuchaydi. Shuning uchun ham iqtisodiy islohatlarning muhim qirralaridan biri chet el investitsiyalarining O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilinishi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning eng muhim iqtisodiy muvaffaqiyatli bo'lishi uchun muhim omil bo'ldi.

2009 yilning to'qqiz oy davomida Navoiy viloyatida yalpi hududiy mahsulot hajmi 7,9 foizga o'sdi. Sanoatda ishlab chiqarish 1,8, qishloq xo'jaligida 6,9, xizmat ko'rsatish sohasida 18,9, qurilish-pudrat ishlarida 16,6 foizga oshdi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, qishloqlarga sanoatni olib kirish, xizmat ko'rsatish va servis sohasini, parrandachilik, baliqchilik singari qator tarmoqlarni rivojlantirish, sanoat

¹ Xalq deputatlari Navoiy viloyat Kengashining 9 sessiya materiallari. 2007 yil 6 aprel

² Navoiy viloyat hokimligi joriy arxiv materiallari. 2009 yil 6 noyabr.

Date: 11th February-2026

korxonalarining ishlab chiqarish quvvatini oshirish evaziga 31 ming 181 ish o'rni yaratildi.¹

Yangi va mustaqil davlat sifatida mamlakatimizning iqtisodiyotida davlat va jamiyatni iqtisodiy negizini barpo etishni Prezidentimizning quyidagi besh tamoyiliga asos qilib olinganligi ham ilmiy bejiz emas albatta:

Birinchidan – iqtisodiyotning mafkuradan xoliligi va uning siyosatdan ustunligi. Boshqacha aytganda, avval iqtisod, keyin siyosat;

Ikkinchidan – davlatning o'zi eski tuzumdan yangi tuzumga o'tish davrida bosh islohotchi bo'lishi, ya'ni uning mamlakatni davlatchilik, ijtimoiy va iqtisodiy sohalarida yangilanishga qaratilgan islohotlarning tashabbuskori bo'lish vazifasini o'z zimmasiga olishi;

Uchinchidan – qonun ustuvorligi yoki barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi;

To'rtinchidan – kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, davlatning aholini ijtimoiy nochor qatlam va guruhlarini qo'llab-quvvatlash borasida mas'ul bo'lishi;

Beshinchidan – islohotlarni bosqichma – bosqich amalga oshirish, “shok terapiyasi” deb atalgan turli usullardan voz kechish. Boshqacha aytganda, mamlakat inqilobiy yo'ldan emas, balki tadrijiy yo'ldan rivojlanishi kerak. Insoniyat tarixi shundan guvohlik beradiki, har qanday inqilobiy yo'l hamisha xalqqa zulm va zo'ravonlik, qon to'kish va talafotlar keltirgan.

Shuning uchun ham iqtisodiy tamoyillarni amalga oshirish zarurati tufayli “Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmag”, “Islohotlar – islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning manfaatlari uchun” deb takror –takror aytiluvchi ushbu mazmundagi so'zlar uning qanchalik iqtisodiy ilmiyligini ham aks ettiradi. Bu so'zlardagi ilmiylikka ayniqsa mustaqillik yillarida alohida to'xtalib o'tish lozim edi.

Navoiy viloyati – O'zbekiston Respublikasining yirik industrial va madaniy markazlaridan biri bo'lib, mamlakatimizning iqtisodiy taraqqiyotida muhim o'ringa ega.

Navoiy viloyatida “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasini tashkil etish yaratilgan qulay sarmoyaviy muhit va imkoniyatlarni iqtisodiyotga joriy etish orqali ham qo'shma sarmoyalarning istiqbolini kengaytirish, shuningdek, yurtimizda davom etayotgan keng ko'lamli xususiylashtirish jarayoni, iqtisodiyotimizni rivojlantirish yo'lida izchillik bilan amalga oshirilayotgan islohotlar rivojlantirish borasidagi o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq holda amalga oshiriladi.

Ushbu hududga erkin kirib chiqish va shu orqali amalga oshiriladigan ishlarni qonuniy ustivorligiga ham huquqiy jihatdan to'xtalib o'tilgan. “Erkin iqtisodiy zona hududiga chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning kirishi, undan chiqishi va shu hududda bo'lishining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan soddalashtirilgan tartibi o'rnatilganini inobatga olib, qonunning 18-moddasiga erkin iqtisodiy zona hududida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning kirish, chiqish va shu hududda bo'lishining soddalashtirilgan tartibi qonun hujjatlarida belgilanishi qayd etildi.”¹

¹ Navoiy viloyat hokimligi joriy arxiv materiallari. Papka № 6. yozma hisobot

¹ Manba: <http://huquqburch.uz/uz/view/>



Date: 11th February-2026

Shunga alohida to'xtalib o'tish lozimki erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish mamlakat ichki bozoridagi iqtisodiy jarayonlarni faollashtirishga yo'naltirilgan chet el sarmoyasini jalb qilish bilan birga:

- innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilg'or texnologiyalarni joriy qilish, eksport, shuningdek, transport va telekommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish;
- sanoat mahsulotlari eksportini qo'llab-quvvatlash va valyuta tushumini ko'paytirish, mahsulotlarning yangi turlarini ishlab chiqarishni o'zlashtirish, to'liq siklda mahsulot ishlab chiqaruvchi sanoat (eksport) zonalarini tashkil etish;
- mahalliy mahsulot va xizmatlarning ichki va tashqi bozorlarda xalqaro sifat, sertifikatlashtirish, qadoqlash talablarini joriy etish orqali raqobatdoshligini oshirish;
- xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarni ishlab chiqarish;
- va nihoyat, yangi ish joylarini barpo etish, malakali ishchi-muhandislar, xo'jalik va boshqaruv kadrlarini tayyorlash, malakasini oshirish kabi bir qator muhim masalalarni hal qilish imkonini beradi.

Navoiy viloyati yosh bo'lishiga qaramasdan yurtimizdagi iqtisodiyoti azaldan rivoj topib kelgan davlatlardan biri sifatida baholanadi. Fikrimizning isboti sifatida

Respublikamiz Prezidentini I.Karimovni birgina Navoiy kon-metallurgiya kombinati faoliyatiga baho berganligidan ham bilib olishimiz mumkin. «Hozirgi vaqtda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan yuqori sifatli oltinning 80 foizi, uran konsentrati va fosfor o'g'itlari uchun zarur xomashyoning hammasi aynan ana shu kombinatda tayyorlanmoqda. Bugungi kunda dunyodagi nufuzli London va Tokio qimmatbaho metallar birjalarida o'zbek oltini o'zining yuksak sifati bilan munosib baholanmoqda»¹-deb alohida ta'kidlaydi.

Bunda albatta chet el davlatlari bilan olib borilayotgan hamkorlik samarasini o'z o'rnini bilan ajralib turganligi va xorijiy davlatlarni investitsiyasini iqtisodiyotimizga joriy qilinishi ahamiyatga moikdir. «Janubiy Koreya tomonidan mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritilayotgan sarmoyalar hajmi 5 million shundan o'zlashtirilganlari esa 2 mln AQSh dollaridan oshdi O'zbekistonda Janubiy Koreya sarmoyasi ishtirokida tuzilgan 350 dan ziyod korxona faoliyat yuritmoqda»² Bugun O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilyotgan investitsiyalar Respublika iqtisodiyotining barcha sanoat agrar sohalaridagi ishlab chiqarish tarmoqlari va korxonalarini zamonaviy texnologiyalar bilan qayta qurollantirishda, milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish uchun eng zarur resurslarni yetkazib beruvchi o'zak tarmoqlarni rivojlantirishda, raqobatbardosh, sifatli mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi korxonalarni barpo etishda muhim rolni bajarmoqda. Ushbu vazifalardan kelib chiqib davlatning investitsiya siyosati esa maqsadli ravishda iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini jadallashtirishga qaratilgandir.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Navoiy kon-metallurgiya va Navoiy shahri asholisiga tabrigi Xalq so'zi. 2008 yil 20 dekabr.

² Xalq so'zi. 2012 yil 20 yanvar №14



Date: 11th February-2026

Bu esa o'z navbatida "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasiga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar hajmini yanada oshirish investitsiya sohasidagi dolzarb yo'nalish hisoblanadi.

Jumladan, o'tgan yilda bo'lib o'tgan O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalar va savdo vazirligi hamda Koreya sanoat majmualari korporatsiyasi o'rtasida "Navoiy" erkin industrial iqtisodiy zonasiga Koreya sarmoyasini jalb qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risidagi anglashuv memorandumini birinchi galda mamlakatimizda muhim region hisoblangan Zarafshon vohasining ijtimoiy-iqtisodiy, texnik-texnologik, tashkiliy-boshqaruv salohiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. «Siyosiy sistemani yangilash masalalarini O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligi muammolaridan ajralgan holda qarash mumkin emas. Bizda bunday mustaqillik uchun shart-sharoit bor»

Buning natijasida nafaqat bu vohaning, balki respublikamizning iqtisodiy qudrati yanada oshadi, yurtimiz obod, xalqimizning turmushi esa bundan-da farovon bo'ladi.

